

**Otabek Shukurov  
Bashorat Bahriiddinova**

**O'ZBEK TILINING  
MA'NODOSH SO'ZLAR O'QUV  
LUG'ATI**

**Maktab o'quvchilari uchun**

<p><b>Tursunali Jumayev</b> <b>To`ychi Valiyev</b></p> <p><b>QO`SHIB YOZILADIMI, AJRATIB&amp;</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>	<p><b>Umida To'rayeva</b> <b>Ikrom Islomov</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING</b> <b>ZID MANOLI SO'ZLAR</b> <b>O'QUV LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>
<p><b>Baxtiyor Mengliyev</b> <b>Mahbuba Xudoyberdiyeva</b></p> <p><b>O'ZBEK TILI IBORALARINING</b> <b>O'QUV IZOHLI LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>	<p><b>Ikrom Islomov</b> <b>Otabek Shukurov</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING</b> <b>SO'ZLAR DARAJALANISHI</b> <b>O'QUV LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>
<p><b>Otabek Shukurov</b> <b>Bashorat Bahriiddinova</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING</b> <b>MA'NODOSH SO'ZLAR O'QUV</b> <b>LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>	<p><b>Baxtiyor Mengliyev</b> <b>Bashorat Bahriiddinova</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING</b> <b>SO'Z TARKIBI</b> <b>O'QUV LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>

0'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
Qarshi davlat universiteti  
0'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi  
Respublika Ta'lim markazi  
Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash  
va malakasini oshirish instituti

**Otabek Shukurov  
Bashorat Bahriiddinova**

**O'ZBEK TILINING  
MA'NODOSH SO'ZLAR O'QUV LUG'ATI**

**(Maktab o'quvchilari uchun)**

**Toshkent  
2006**

Lug'at, avvalo, o'rta maktab o'quvchilari uchun mo'ljallangan. U, shuningdek, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari, filolog talabalar va qolaversa, o'zbek tili bilan qiziquvchi kehg o'quvchilar ommasi uchun ham foydadan xoli emas.

Mas'ul muharrir  
**Hamid Ne'matov**  
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar  
**Tursunali Jumayev**  
filologiya fanlari nomzodi

**Odil Begimov**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

## ALIFBO

A  
B  
D  
E  
F  
G  
H  
I  
J  
K  
L  
M  
N  
O

P  
Q  
R  
S  
T  
U  
V  
X  
Y

Z  
O‘  
G‘  
SH  
CH  
NG

## SO'ZBOSHI

Kuchli va ayovsiz raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy taffakkur sohibi bo'lgan, har qanday qiyin vaziyatdan o'z aql-idroki bilan omon chiqa oladigan mustaqil fikrli, shu bilan birga, shuurida milliy ruhi mustahkam shaxsni tarbiyalashni talab qiladi.

Inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bog'liqdir. Demak, ijodiy va mustaqil taffakkurli shaxs tarbiyasida ona tili va uning ta'limini tashkil etuvchi vositalarning roli beqiyos.

Ma'lumki, o'rta maktab ona tili ta'limining konseptual asoslarida uining zaruriy vositasi ikkita ekanligi ta'kidlanadi: darslik va lug'atlar. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o'stirishning zaruriy omillaridan biri lug'atlar ustida ishlashdir. Lug'atlar o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so'z zahirasini vujudga keltiradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta'limning har bir bo'g'ini uchun (bog'chadan tortib, universitetgacha) yuzlab lug'atlarning maxsus turlari yaratilgani, hatto rus maktablari uchun 30 ga yaqin o'quv lug'atlari mavjud bo'lgani holda o'zbek maktablari uchun bitta «Imlo lug'ati» bor, xolos. Maktablar uchun izohli lug'at, ma'nodosh so'zlar lug'ati, antonimlar lug'ati, darajalanish lug'ati, eskirgan so'zlar lug'ati, shevaga xos so'zlar lug'ati, iboralar lug'ati, so'zlarning birikuvchanlik lug'ati, uyadosh so'zlar lug'ati, shakldosh so'zlar lug'ati, so'z tarkibi lug'ati, talaffuzdosh so'zlar lug'ati, shuningdek, har bir fan bo'yicha alohida terminologik lug'atlar va qomuslar yaratish dolzarb vazifadir.

O'quvchilar uchun zarur lug'atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin emas, og'zaki va yozma nutqni o'stirish vositasi bo'lgan joriy darsliklar o'z vazifasini to'la bajara olmaydi. Bu o'rta ta'lim bo'g'ini uchun mavzuviy o'quv lug'atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish va tuzishni taqozo qiladi.

Qarshi davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi professor-o'qituvchilari Qashqadaryo viloyat pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti bilan hamkorlikda maktablar uchun mavzuviy o'quv lug'atlarini ishlab chiqishdek sharafli vazifani o'z zimmalariga oldilar va buning natijasi o'laroq kelajagimiz faxri bo'lgan maktab o'quvchilari uchun shu tipdag'i o'quv lug'atlari turkumi yaratildi.

O'quv lug'atlari tajriba sifatida birinchi marta nashr qilinayotganligi uchun kitobxonlar muhokamasiga havola etiladi. Lug'atlar haqidagi fikrlaringizni mammuniyat bilan qabul qilamiz.

*Manzil:* Qarshi shahri Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Qarshi davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasi. Tel: (8-375) 25-77-63; 23-48-55). Faks: (8-375) 221-13-12. E-mail:kasu\_info@edu.uz.

**B.R.Mengliyev**  
filologiya fanlari doktori, professor

## TUZUVCHILARDAN

Ushbu qo'llanma o'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati bo'lib, unda so'zlar ma'nodoshligi alifbo tartibida nutqiy misollarsiz sinonimik qator holida berildi:

**Adolat** [a], odillik, adl [a]

**Adolatli**, odil [a]

**Adolatsizlik**, haqsizlik, bedodlik

**Adovat** [a], kek, xusumat [a].

Lug'atni yaratishda asosiy manba sifatida 1974-yilda nashr qilingan «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» (A.Hojiyev) va «O'zbek tilining izohli lug'ati» (Ikki tomlik. -M.: Русский язык, 1981)ga tayanildi.

Ma'lumki, jamiyat hayoti bilan birgalikda til ham rivojlanar ekan, bugungi kunda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar yangi lug'at yaratish ehtiyojini yuzaga keltiryapti. «O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati»ni tuzishda «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati»ni yaratish uchun tayanilgan tamoyillarga asoslanildi. Biroq mazkur lug'at yuqorida tilga olingan «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati»dan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

1. «O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati» izohsiz sinonimik qator holida kengaytirildi.

2. Sinonimik qatordagi bosh so'z (dominanta) belgilandi va qora rangda ajratildi.

3. O'quvchilarning lug'at bilan ishslash samaradorligini oshirish maqsadida ma'nodosh so'zlarning o'z yoki o'zlashma qatlam ekanligi aniqlandi.

Birdan ortiq sinonimik qatorda bosh so'z bo'lgan sinonim alohida-alohida va rim raqami bilan berilgan.

Bugungi kunda tilga tizim sifatida qaralayotgan bir paytda tilshunoslikda lisoniy birliklarning ma'noviy munosabati, ularning o'zaro o'xhash va farqli xususiyati masalasi ko'pgina tilshunoslarni o'ziga qiziqtirib qo'ymoqda. O'tgan asrimizning 40-90-yillarigacha so'zlararo ma'noviy munosabatlar sinonimiya va antonimiya bilan chegaralanib qoldi. Sistem tahlil usuli asosida olib borilgan keyingi kuzatishlarda tilimizda ma'noviy munosabat rang-barang ekanligi oydinlashib, ularning graduonimiya, giponimiya, partonimiya, funksionimiya, ierarxonimiya kabi turlari ham farqlandi. Shunga muvofiq ma'nodosh so'zlar bilan darajalangan so'zlar qatorini farqlash ham o'quvchilar uchun bugungi kun talabidir.

Lug'aviy ma'nodoshlik sememasi tarkibidagi atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari har xil bo'lgan, bir turdag'i narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni ifodalovchi leksemalararo munosabatdir. Darajalanish esa umumiyligi atash semalari bir xil, lekin ma'lum bir semaning turli darajasini ifodalovchi leksemalardir. Bundan tashqari, ma'nodoshlik va darajalanish orasidagi ikkinchi farq shundaki, ma'nodoshlik qatoridagi leksemalar o'zaro ifoda semalari bilan farqlansa, darajalanish qatorida bu shart bo'lmaydi. Tilshunosligimizda darajalangan so'zlarni maxsus o'rgangan olima Sh.Orifjonova graduonimlarda lug'aviy paradigma bir yetakchi (dominanta) atrofida birlashishini ta'kidlab, «darcha» va «darvoza» so'zlarining ma'nosisi «eshik» yetakchi so'ziga nisbatan ochilishini qayd etadi<sup>1</sup> va ularni darajalangan so'zlar qatoriga kiritadi.

<sup>1</sup> Orifjonova Sh. O'zbek tilida leksik graduonimiya: Filol. fan. nomz. diss. ... avtoresf. - T., 1996. 19-b.

Shunga ko'ra ma'nodosh sifatida qarab kelingan ko'pgina darajalangan so'zlar alohida munosabat tizimi sifatida qaralib, mazkur lug'atdan chetda qoldi.

### **Shartli qisqartmalar**

a—arabcha  
fr—fransuzcha  
f-t—fors-tojikcha  
grek—grekcha  
hind—hindcha  
ingl—englizcha  
ital—italyancha  
lat—latincha  
mo'g'—mo'g'ilcha  
nem—nemischa  
r—ruscha  
turk—turkcha

-A-

**Abadiy** [a], mangu [mo'g'], umrbod [a+f-t], toabad [f-t+a], ilalabad [a]

**Abadiylashtirmoq**, mangulashtirmoq

Abas [a], **foydasiz**, behuda [f-t]

Abdol [a], xudojo'y [f-t], **dindor** [a+f-t]

Abgor [f-t afgor], **nochor** [f-t], xarob [a]

Abjir, epchil, **chaqqon**

Abjaq bo'lmoq, **majaq bo'lmoq**, dabdala bo'lmoq

Ablah [a], **yaramas**, razil [a]

Ablahona, **ablahlarcha**

Ablaq [a], **chipor**, chavkar

Abonent [r<nem], **obunachi**

Abr [f-t], **bulut**

Abrishim [f-t], **ipak**

Abro' [f-t], **qosh**

Abro'kamon [f-t], **qayrilmaqosh**

Absolyut [r<lat], **mutlaq** [a]

Abstrakt [r], **mavhum** [a]

Abzal [f-t<afzor], **egar-jabduq**

Abzallamoq, **egarlarimoq**, egar-jabduq urmoq

Abzas [r<nem], **xatboshi**, satrboshi

**Adabiyotchi**, adabiyotshunos [a+f-t]

Adabsiz, tarbiyasiz, **axloqsiz**, beadab [f-t+a]

Adad [a], **son**, miqdor [a]

Adadsiz, son-sanoqsiz, hisobsiz, **behisob** [f-t+a], beedad [f-t+a], cheksiz

Adam [a], **yo'qlik**

Adashmoq, **yanglishmoq**

Adib [a], **yozuvchi**

Adil [a], to'g'ri, **tik**

**Adip**, mag'iz, parovuz

Adno [a], **past**, quyi

**Adolat [a]**, odillik, adl [a]

**Adolatli**, odil [a]

**Adolatsizlik**, haqsizlik, bedodlik

**Adovat [a]**, kek, xusumat [a]

Afandi [turk-usm<grek], **janob** [a]

Afif [a], **pokiza** [f-t], toza, iffatli

Aforizm [r<grek], **hikmatli so'z**

Afsonaviy [a+f-t], afsonavor [a+f-t], **fantastik** [r]

Afsun [a], jodu, **sehr** [a]

Afsungar [a+f-t], jodugar, **sehrgar** [a+f-t], afsunchi

**Afsuslanmoq**, pushaymon qilmoq, o'kinmoq

Aftidan, **chamasi**

Afv [a], kechirim, **uzr** [a]

**Afzal** [a], ortiq, ustun, yuqori, a'lo [a]

**Afzallik**, ortiqlik, ustunlik, maziyat [a]

Afg'on [a], faryod [f-t], **fig'on** [a], nola [f-t]

Agent [r<lat], **ayg'oqchi**, josus [a], shpion [r<nem]

**Agressiv** [r], tajovuzkorlik, bosqinchilik

**Agressiya** [r<lat], tajovuzkorlik, tajovuz [a], bosqinchilik

**Agressor** [r], bosqinchi, tajovuzkor [a+f-t]

**Agar** [f-t], mabodo [f-t], basharti [f-t+a], bordiyu, magar [f-t]

**Ahd** [a], qaror [a], va'da [a], lafz [a]

Ahslashmoq, **va'dalashmoq**, so'z berishmoq

Ahdnama [a+f-t], **bitim**, shartnama [a+f-t], pakt [r<lat]

**Ahmoq** [a], tentak, telba, go'sxo'r [f+t], laqma

**Ahvol** [a], holat [a], hol [a], vaziyat [a], sharoit [a], ahvolot [a]

**Ahamiyat [a]**, e'tibor [a], muhimlik, hamiyat [a]

Ahamiyatli, e'tiborli, **muhim** [a], hamiyatli

**Ahamiyatsiz**, e'tiborsiz

Ajablanmoq, taajjublanmoq, hayron bo'lmoq, **hayratlanmoq**

**Ajablanarli**, taajjub [a], taajjublanarli

**Ajam** [a], forslar, eronlar (g'ayriarablar)

Ajdargul [f-t], **itog'iz**

Ajdarnafs [a+f-t], **yebto'ymas**, mechkay, ochofat

Ajdod [a], **ota-bobolar**

Ajib [a], ajab [a], **qiziq**, ajoyib [a], g'alati [a+f-t], ajablanarli

Aji-buji, pala-partish, **egri-bugri**

**Ajin**, tirish, burish(iq)

Ajina [a], **jin** [a]

Ajiva [a], **masxara** [a]

Ajnabiy [a], **xorijiy** [a]

**Ajralmoq**, ayrilmoq,yorilmoq, bo'linmoq, parchalanmoq

Ajratmoq I, **ayirmoq**

**Ajratmoq** II, ayirmoq, farqlamoq, farq qilmoq

Ajz [a], **ojizlik**, zaiflik

**Aka**, og'a

Akashak bo'lmoq, **tortishib qolmoq**

Akbar [a], buyuk, **ulug'**, azim [a]

Akildoq, **vaysaqi**

Aks [a], teskari, qarshi, qarama-qarshi, **zid** [a], chappa

**Aksirmoq**, aksa urmoq, chuchkirmoq

**Aksiya** [r<fr], qimmatbaho qog'oz

**Aksiyador**, aksioner [r], aksiyachi

Aksar [a], ko'p, **aksariyat** [a]

Aktiv [r], **faol** [a]

Aktivlashmoq, **faollashmoq**

Aktual [r], **dolzarb**, hayotiy [a]

**Aktyor** [r], artist [r<fr]

**Akula** [r], nahang [f-t]

Alaf [a], o't

Alahlamoq, **alaxsiramoq**

Alalxusus [a], **xususan [a]**, ayniqsa

**Alam** [a], dard [f-t]

Alamnok [a+f-t], **alamli**

**Alanga**, yolqin

Alay-balay, u-bu, **g'ing-ping**, g'iring-piring

Alag'da bo'lmoq, betinch bo'lmoq, **bezovta bo'lmoq**

**Albatta** [a], shubhasiz, muqarrar [a], so'zsiz, aniq [a], tayin [a], shaksiz, beshak [f-t+a], begumon [f-t]

Aldamchi, aldoqchi, firibgar [f-t], **yolg'onchi**, va'dasiz, qallob [a], toylamachi, aferist [r]

Aldamoq, **yolg'on gapirmoq**, laqillatmoq, vaysamoq

Alfoz [a], **so'z**, kalima [a], lafz [a]

Alhol [a], **hozirda**, ayni paytda

**Alifbo** [a], alfavit [r<grek]

**Aljimoq**, aljiramoq, valdiramoq, sannamoq

Allegorik [r], **majoziy** [a]

Allakim, **kimdir**, birov

**Allamahal**, allavaqt

Allanechuk, **allaqanday**, qandaydir, g'alati [a+f-t], bir xil

Allanecha, **allaqancha**

Allanima, **nimadir**, allanarsa

Allapalla, **yarim kecha**, allamahal

Allaqachongi, **qadimgi**, eski

Almisoqi [a+f-t], **qadimgi**, burungi, eski

**Alohida**, ayrim, ba'zi

Alomat [a], **belgi**, nishon [f-t], nishona [f-t], taniq [a], ifoda [a]

Aloqa [a], **bog'lanish**, uzviylik, robita [a]

**Aloqa** [a], daxl [a], taalluq [a]

**Aloqador** [a+f-t], bog'liq, daxldor [a+f-t], tegishli, oid [a], taalluqli Alqissa [a], xullasi kalom [a+f-t], qisqasi, **xullas** [a], nihoyat [a], alhosil [a], shunday qilib

Alvon [a], **qirmizi** [f-t]

**Amaldor** [a+f-t], mansabdar [a+f-t], a'yon [a]

**Amal qilmoq**, rioya qilmoq

Amaliyot [a], **tajriba** [a], praktika [r<grek]

**Amallamoq**, ilojini topmoq, amal-taqal qilmoq

Amalparast [a+f-t], **mansabparast** [a+f-t]

Ammo [a], **lekin** [f-t<a], biroq, illo [a]

Amniyat [a], **xavfsizlik**, bexavotirlik

Amoma [a], **salla** [a]

Amr [a], **buyruq**, farmon [f-t], farmoyish [f-t]

Analiz [r<grek], **tahlil** [a]

Andak [f-t], picha, sal, xiyol [a], **ozgina**

Andaza [f-t], **namuna** [f-t], qolip [a]

**Aniq** [a], ochiq, yaqqol, ravshan [f-t], yorqin, oydin, ayon [a]

**Aniqlamoq**, oydinlashtirmoq, muayyanlashtirmoq

**Andisha** [f-t], o'y, mulohaza [a]

Anjuman [a], yig'ilish, **majlis** [a], yig'in

Anketa [r<fr], **so'rovnama**

Anqimoq, **tarqalmoq**, ufurmoq

**Anqov**, merov, ovsar, kalvak [f-t], go'l [f-t], laqma, angrov, pandavaqi, lakalov, galvars

**Anqaymoq**, angraymoq, baqraymoq, ag'raymoq

**An'ana** [a], traditsiya [r<lat]

**Apil-tapil**, naridan-beri, shosha-pisha

Apteka [r<grek], **dorixona** [f-t]

**Aqiq** [a], haqiq [a]

**Aql** [a], xirad [f-t], ong, fahm [a], tamiz [f-t], es, miya, bosh, kalla [f-t]

**Aql-hush, es-hush**

**Aqli**, xiradmand [f-t], oqil [a], esli, es-hushli, fahm-farosatli, did-farosatli, aqlli-hushli, miyali, kallali

**Aqlsiz**, beaql [f-t+a], nodon [f-t], johil [a], bexirad [f-t]

**Aqalli** [a], loaqal [a], jillaqursa, jilla bo'lmasa, juda bo'lmaganda, hech bo'lmaganda

**Archimoq**, artmoq

Ardoqlamoq, eyhtiyot qilmoq, **avaylamoq**

**Arg'imchoq**, hayinchak

**Arimoq**, ketmoq, uzilmoq

Aristokrat [r], zodagon [f-t], **asilzoda** [a+f-t], oqsuyak

Arjumand [f-t], aziz [a], **qadrlı**, qimmatli

Armiya [r<fr<lat], **qo'shin**, lashkar [f-t]

**Arqon**, arg'amchi

Arsenal [r<fr<a], **aslahaxona** [a+f-t], qo'rxona

**Arz** [a], shikoyat [a]

**Arzimagan**, arzimas, anchayin

Arzimaganga, arzimasga, **salga**, saldan-salga, bo'lar-bo'lmasga, unar-unmasga

**Aralash**, qorishiq, omuxta [f-t]

**Aralashmoq** I, qo'shilmoq, qotishmoq, suqilmoq

Aralashmoq II, **qorishmoq**, omuxta bo'lmoq

Arang, **zo'rg'a**, zo'rg'atdan, bazo'r, zo'rba-zo'r, o'lib-tirilib

**Araqxo'r** [a+f-t], piyonista [r пьяница], mayxo'r [f-t], ichkilikboz

Aravakash [a+f-t], **karvonboshi**, karvon [f-t]

**Asab** [a], nerv [r<lat]

**Asabiy** [a], tajang [a], jizzaki

**Asabiylashmoq**, g'azablanmoq, jahli chiqmoq, achchiqlanmoq, qizishmoq

**Asal** [a], bol

**Asar** [a], asorat [a], nishon [f-t], iz

**Asil** [a], toza, sof [a], sara [f-t], sarxil, xil, mumtoz [a], poshshaxon

**Asilzoda** [a+f-t], oqsuyak, aristokrat [r], zodagon [f-t]

**Asir I** [a], bandi [f-t], tutqun, ariston [r аристант]

Asir II [a], **qul**

**Asirlik**, asorat [a], tutqunlik, qullik

Asket [r<греч], **zohid** [a], go'shanishin [f-t]

Asketizm [r], **zohidlik**, gushanishinlik

**Askar** [a], soldat [r]

**Asl I** [a], tub, negiz

**Asl(i) II** [a], tag(i)

**Aslida**, haqiqatda, asli [a]

Aslo [a], **sira**, zinhor [f-t], hech [f-t]

**Aslaha** [a], qurol, qurol-yarog', qurol- aslaha

**Asos** [a], tayanch, negiz, poydevor [f-t], baza [r<фр]

**Asosiy** [a], bosh, yetakchi, muhim [a]

Asoslamoq, **isbotlamoq**

**Asoslanmoq**, suyanmoq, tayanmoq

**Asossiz**, dalilsiz, bekorga

Asosan [a], binoan [a], ko'ra, **muvofiq** [a], asosida

Asotsiatsiya [r<лат], birlashma, **uyushma**

Asqatmoq, **kerak bo'lmoq**, ish bermoq, foyda bermoq

Asrdosh [a+f-t], **zamondosh** [a+f-t]

Asror [a], **sir** [a]

Asramoq I, **eyhtiyot qilmoq**, saqlamoq

Asramoq II, parvarish qilmoq, **boqmoq**

**Assistant** [r<лат], yordamchi

**Astoydil** [f-t], jiddiy, rostakamiga, chinakam(iga), rosa [f-t], uvvalo

**Astoyidil** [f-t], chindan, yurakdan

**Astronomiya** [r<греч], falakiyot [a]

Asta, **sekin**

**Astarlik**, astarbop [f-t]

Asta-asta, sekin-sekin, **asta-sekin**, sekin-asta, tadrijan [a]

**Atamoq**, nom bermoq, nomlamoq

**Atama**, termin [r<lat], istiloh [a]

**Ataylab**, atay, atayin [a], ataydan, jo'rttaga, jo'rtta, maxsus [a], azza-bazza, qasddan

**Ateist** [r], xudosiz

**Atigi**, bor-yo'g'i, bori, bo'lgani, nihoyati, faqat(gina) [a]

Ato qilmoq, in'om etmoq, baxsh etmoq, **bermoq**

**Atoqli**, taniqli, dongdor, mashhur [a],

**Atrof** [a], tevarak, gird [f-t], tegra, har tomon, har taraf [a], har yon, aylana, qurshov, sog'-u so'l

Atroflicha, har tomonlama, har taraflama, **batafsil** [f-t+a], mufassal [a], mukammal [a], to'la, to'liq, to'la-to'kis

**Attang**, afsus [f-t], nadomat [a], pushaymon [f-t], esiz, taassuf [a], darig' [f-t], (vo) hasrato [a]

Auditoriya [r<lat], **xona** [f-t], bo'lma

Avangard [r<fr], **ilg'or**, yetakchi

**Avans** [r<fr], bo'nak

Avaxta [r gaupvaxta], **qamoqxona**

Avaylamoq, ayamoq, **ehtiyotlamoq**, ehtiyot qilmoq, ardoqlamoq, e'zozlamoq, e'zoz etmoq, pahpahlamoq

Avbosh [f-t]], bezori [f-t], **bevosh**

Avjlanmoq, **kuchaymoq**, zo'raymoq

**Avliyo** [a], vali [a], karomatchi

**Avlod** I [a], nasl [a], zurriyot [a]

**Avlod** II [a], bo'g'in

Avtobiografiya [r<grek], hasbi hol [a+f-t], **tarjimayi hol** [a+f-t]

Avtograf [r<grek], **dastxat** [f-t+a]

Avtor [r<lat], **muallif** [a]

**Avval** [a], ilgari, oldin, burun, qadim

**Avvaldan**, ilgaridan, burundan, qadimdan, azaldan, boshdan  
**Avvalgi**, oldingi, ilgarigi, burungi, qadimgi, sobiq [a]  
**Avvalo** [a], avvalambor [a+f-t], avvalam, avval boshi, avvali [a], boshi, boshda, birinchidan

**Axborot** [a], xabar [a], ma'lumot [a], informatsiya [r<lat]  
Axir [a], **nihoyat** [a], oxiri

Axloq [a], tarbiya [a], odob [a], adab [a], **xulq** [a], xulq-atvor [a], yurish-turish

**Axlat** [a], najas [a], najosat [a]

Axtarmoq, qidirmoq, **izlamoq**, istamoq

Ayamoq, **rahm-shafqat qilmoq**, rahmdillik qilmoq

**Ayb** [a], gunoh [f-t], jinoyat [a], yoziq

**Aybdor** [a+f-t], aybli, gunohkor [f-t]

Aybsitmoq, **kamchilik topmoq**, nuqson topmoq

**Aybsiz**, gunohsiz, begunoh [f-t], beayb [f-t+a]

**Ayg'oqchi**, josus [a], shpion [r<nem], agent [r<lat]

**Ayrboshlamoq**, ayrbosh qilmoq, almashmoq, almashtirmoq, alishmoq

**Ayirmoq**, ajratmoq, judo qilmoq, mahrum qilmoq

Aylanishmoq, **ilakishmoq**, osilmoq

Aylanmoq, **sayr etmoq**, kezmoq

**Aylanma**, doiraviy [a], halqasimon

**Aylanay**, aylansin, o'rgilay, o'rgilsin, girgitton, qoqindiq, sadaqa [a]

Aymoq, **urug'** qarindosh

Aymashmoq, **o'rалмоқ**, chirmashmoq, chirmalmoq

**Aynimoq**, buzilmoq, achimoq

Ayniqsa, **xususan** [a], alalxusus [a]

**Ayol** [a], xotin, xotin-qiz, xotin-xalaj

Ayon [a], ravshan [f-t], **ma'lum** [a]

Ayov, shafqat [a], **rahm** [a], omon [a]

Ayovsiz, beayov, **shafqatsiz**, beshafqat [f-t+a], beomon [f-t+a], rahmsiz, berahm [f-t+a]

**Ayricha**, **boshqacha**, o'zgacha  
**Ayriliq**, judolik, hijron [a], hajr [a], firoq [a]  
**Ayrlimoq**, ajra(l)moq  
**Ayrim**, ba'zi [a], ba'zibir  
Aysh [a], **huzur** [a], rohat [a], nash'a [a]  
Ayshgoh [a+f-t], **ishratxona** [a+f-t]  
**Aytganday**, aytmoqchi, aytgancha, darvoqe [f-t+a], rostdan, ha  
Aytishmoq, **janjallashmoq**, koyishmoq, mojarolashmoq, urishmoq, g'ijillashmoq,  
qizarishmoq, tiklashmoq, olishmoq, so'kishmoq  
**Aytmoq I**, gapirmoq, demoq, bayon qilmoq, izhor etmoq, bildirmoq  
**Aytmoq II**, **taklif qilmoq**, chaqirmoq, chorlamoq  
**Aytmoq III**, olmoq  
**Aytarli**, unchalik, uncha  
**Aytaylik**, deyaylik, faraz qilaylik  
**Ayyor** [a], mug'ombir [a], hiylagar [a+f-t], quv, ustomon, makkor [a], dog'uli,  
mo'ltoni [hind], qilvir(i), shayton [a], tulki, tullak, qirriq, xirpi, maston [f-t]  
**Ayyorona** [a+f-t], mug'ombirona [a+f-t], makkorona [a+f-t], ayyorlarcha  
**Aza** [a], motam [f-t], ta'ziya [a]  
**Azador** [a+f-t], ta'ziyali  
Azal [a], **qadim** [a]  
Azaldan, **avvaldan**, qadimdan, eskidan  
Azamat [a], qudratli, zabardast [f-t], **baquvvat** [f-t+a], kuchli  
Azayimxon [a+f-t], **duoxon** [a+f-t]  
Azim [a], ulkan, haybatli, yirik, bahaybat [f-t+a], **katta**  
Aziz [a], qadrond [a+f-t], **qadrli**, muhtaram [a], qimmatli  
Azm [a], jazm [a], **qaror** [a]  
Azob I [a], **qiinchilik**, mashaqqat [a], aziyat [a]  
**Azob II** [a], aziyat [a], jabr [a], jafo [a], ozor [f-t], zahmat [a], alam [a], iztirob [a],  
uqubat [a], sitam [f-t]  
**Azobli**, jafoli, uqubatli, zahmatli, alam-iztirobli, achchiq, sitamli

Azoblamоq, **qiynamoq**, qiyonoqqa solmoq, qiyonoqlamoq

Azonchi, **muazzin** [a]

Azonlab, **saharlab**, azonda, saharda

Azza-bazza, **atabaylab**, atay, atayin [a], qasddan, jo'rttaga

**Ag'(a)namoq**, yumalamоq (dumalamоq)

**Ashaddiy** [a], o'taketgan

**Ashqol-dashqol**, lash-lush, laq-luq, qaqir-ququr, mayda-chuyda

**Ashula**, qo'shiq

**Ashulachi**, xonanda [f-t], qo'shiqchi, hofiz [a]

**Achinarli**, ayanchli, ayanch, zabun [f-t]

**Achinmoq**, afsuslanmoq, afsus qilmoq, kuymоq, kuyinmoq, o'kinmoq

Achitqi, **xamirturush** [a+f-t], turush [f-t]

**Achishmoq**, jizillamoq

Achchiqlanmoq, **g'azablanmoq**, qahrlanmoq

Ash'or [a], **she'r** [a]

A'mol [a], **amal** [a]

A'zam [a], **ulug'**, buyuk, azim [a]

**A'zo** [a], qism [a], uzb [a]

## -B-

Badnom [f-t], uyatli, **sharmanda** [f-t], sharmsor [f-t]

Badan I [a], **tan(a)** [f-t], vujud [a], borliq

Badan II [a], **tan(a)** [f-t], et

**Bahs** [a], tortishuv, munozara [a], mubohasa [a]

**Bahslashmoq**, tortishmoq, munozaralashmoq, munozara qilmoq, tashlashmoq

**Bajarmoq**, ado etmoq, bitirmoq, o'rinal(t)moq, do'ndirmoq, o'tamoq, bajo qilmoq

**Baland**, yuqori

**Balandlamoq**, yuqorilamoq, ko'tarilmoq, o'rlamoq

**Balandparvoz** [f-t], dabdabali, tamtaroqli, bejama

**Balli** [f-t], barakalla [a], ofarin [f-t], yasha, yashavor, qoyil [a], tasanno [a], o'lmanг, tahsin [a], sallamno [a]

**Balo I** [a], falokat [a], ofat [a]

**Balo II** [a], usta [f-t], ustamон, bilag'on, bilarmon, chechan, epchil, chaqqon, uddaburon [a+f-t]

**Balog'at [a]**, voya [f-t], kamol [a], kamolot [a], yetuklik

**Barg** [f-t], yaproq

**Baribir**, farqsiz, befarq [a+f-t], ahamiyatsiz

Bas [f-t], bo'ldi, tamom, yetar(li), **kifoya** [a], bo'lgani

**Baxt** [f-t], iqbol [a], tole [a], saodat [a]

**Baxtli**, baxtiyor [f-t], saodatli, toleli, mas'ud [a]

**Baxtsiz**, bebaxt [f-t], badbaxt [f-t], tolesiz, sho'rpeshana [f-t]

**Bayroq**, alam [a], yalov, tug'

**Ba'zi** [a], ba'zi bir, ayrim, bir xil

**Ba'zan [a]**, goho [a], gohida, gohi-gohida, ahyon-ahyonda, unda-bunda, ora-sira, o'qtin-o'qtin, har zamon(da), birda-yarim

**Bechora** [f-t], sho'rlik, boyoqish, o'ksiz, notavon [f-t], ojiz [a], aftoda [f-t]

**Befahm** [f-t+a], fahmsiz, befarosat [f-t+a], farosatsiz, betamiz [f-t], haftafahm [f-t+a]

**Begona** [f-t], yot, o'zga, birov, kishi, notanish, g'ayr [a], ag'yor [a]

**Behuda** [f-t], bekor [f-t], bekorchi, foydasiz, befoyda [f-t+a] zoe [a], benaf [f-t+a], ma'nosiz, ortiqcha

**Beixtiyor** [f-t], ixtiyorsiz, bexosdan, bilmasdan

Bejirim, xushbichim, **kelishdan**, xushqomat [f-t+a], ketvordan, lobar [f-t], tamtam

Bekinmoq, **yashirinmoq**, pismoq, biqinmoq

**Bekor** [f-t], beish, ishsiz, bo'sh

**Bekorchi**, bo'lmag'ur, yolg'on

**Bekorga**, bekor [f-t], o'rinsiz, noo'rin, asossiz, bejiz [f-t bechiz]

**Bekam-ko'st**, kam-ko'stsiz, to'la (to'liq), to'la-to'kis, to'kis, but, badastur [f-t], mukammal [a]

**Belgi**, nishon [f-t], alomat [a], nishona [f-t], taniq, ifoda [a]

**Belamoq** (belashtirmoq), qormoq (qorishtirmoq), bulg'amoq

**Bemahal I** [f-t+a], bevaqt [f-t+a]

**Bemahal II** [f-t+a], bevaqt [f-t+a], bemavrid [f-t+a]

**Bemalol** [f-t+a], bamaylixotir [f-t+a], bafurja [f-t], bahuzur [f-t+a], bazur [f-t+a]

**Beparvo** [f-t], parvosiz, beg'am [f-t+a], e'tiborsiz, bee'tibor [f-t+a], loqayd [a]

**Beqiyos** [f-t+a], mislsiz, tengsiz, benihoya [f-t+a]

**Beva** [f-t], tul, yesir [a]

**Bezak**, ziynat [a], hasham [a]

**Beza(t)moq**, yasatmoq

**Bezovta**, betoqat [f-t+a], betinch, notinch, halak [a], besaranjom [f-t]

**Bezovtalanmoq**, bezovta bo'lmoq, betoqatlanmoq, toqatsizlanmoq, betoqat bo'lmoq, betinchlanmoq, tinchsizlanmoq, betinch bo'lmoq

Beg'ubor [f-t+a], **toza**, sof [a], musaffo [a]

**Birdan-bir**, yagona [f-t], yakka-yagona [f-t], yolg'iz, tanho [f-t]

**Birov**, kimdir, allakim

**Birpas**, biroz, ozgina, andak [f-t], sal, picha

**Bitirmoq**, tugatmoq, tugallamoq, tamomlamoq, tamom qilmoq, ado qilmoq

**Boplamoq**, qoyil qilmoq, qoyillatmoq, o'xshatmoq, o'rinlatmoq, kelishtirmoq, qotirmoq, do'ndirmoq, qiymoq, eshmoq, mondalamoq

**Bor**, mavjud [a]

Bosilmoq, **to'xtamoq**, tinmoq, tinchimoq, qolmoq

**Bosinqiramoq**, alaxlamoq, alahsiramoq

**Botinmoq**, jur'at etmoq, jasorat qilmoq

**Botir** [f-t<mo'g' bahodir], jasur [a], dovyurak, yurakli, qo'rmas, shijoatli, mard [f-t], yovqur

**Boy**, badavlat [f-t+a], davlatmand [a+f-t], zangin

**Boylik**, davlat [a], dunyo [a], mol-mulk [a], bisot [a], bizoat [a]

**Bosh**, kalla [f-t]

**Boshlamoq**, kirishmoq, tutinmoq

**Boshliq**, rahbar [f-t], yo'lboshchi, ishboshi, boshchi, sarkor [f-t], katta, kattakon, ulug', rahnamo [f-t], sardor [f-t], peshvo [f-t], sarvar [f-t], sarkarda [f-t], xo'jayin [f-t]

**Boshqa I**, bo'lak, o'zga  
**Boshqa II**, bo'lak, o'zga, ortiq, tashqari  
**Boshqarmoq**, idora qilmoq, so'ramoq  
**Boshqatdan**, qayta, qaytadan, yangidan, yana, takror  
**Boshqacha**, bo'lakcha, o'zgacha, ayricha  
**Buloq**, chashma [f-t]  
Bulg'a(t)moq, **iflos qilmoq**, ivirsitmoq  
**Buyruq**, amr [a], farmon [f-t]  
Bo'limg'ur, **bema'ni** [f-t+a], noma'qul [f-t+a], nojo'ya [f-t], nobop [f-t], nodurst [f-t], tuban, jirkanch, rasvo [f-t], yaramas, razil [a], qabih [a]  
**Bo'pti**, mayli, xo'p [f-t], yaxshi, durust [f-t], tuzuk, bo'ladi  
**Bo'shamoq**, tushmoq, olinmoq, ozod qilinmoq, bekor bo'lmoq  
**Bo'shashmoq**, shalviramoq, shalpaymoq  
**Bo'shatmoq**, ozod qilmoq, qo'yib yubormoq

-D-

**Dafn etmoq**, ko'mmoq, qo'ymoq  
**Dangasa**, yalqov, ishyoqmas, tanbal [a], soyapar(var) [f-t]  
**Dang'illama**, hashamatli, serhasham, muhtasham [a]  
**Daraksiz**, bedarak [f-t], dom-daraksiz, bedom-darak [f-t], nom-nishonsiz, benom-nishon [f-t]  
**Dardlashmoq**, hasratlashmoq  
**Darmonsiz**, bedarmon [f-t], majolsiz, bemajol [f-t+a], madorsiz, bemador [f-t+a], quvvatsiz, bequvvat [f-t+a], kamquvvat [f-t+a]  
**Darrov** [f-t], darhol [f-t+a], tez, tezda, birpasda, bir zumda, bir lahzada, zumda, lahzada  
**Dastlab**, dastavval [f-t+a], avval [a], oldin, boshlab, avvali [a], avvalboshi, avvalo [a], boshda  
**Davolamoq**, tuzatmoq  
Daxmaza [f-t], **dardisar** [f-t], tiriktovon  
**Daydi**, sanqi

**Daydimoq**, sanqimoq, sandiroqlamoq, tentiramoq, laqillamoq, salanglamoq, sakillamoq

**Deyarli**, qariyb [a], hisob(i) [a]

**Doim** [a], doimo [a], hamisha [f-t], hamma vaqt [f-t+a], har doim [f-t+a], har mahal [f-t+a], har vaqt [f-t+a], nuqul [a], mudom [a], briday, yakkash [f-t], yalang, hadeb

Doklad [r], **ma'ruza** [a]

Dongdor, **mashhur** [a], nomdor [f-t], taniqli

**Dovruq**, dong, shuhrat [a], shon [a], nom [f-t], ovoza [f-t]

**Dunyo** [a], jahon [f-t], olam [a], koinot [a]

**Dushman** [f-t], yov, g'anim [f-t], ag'yor [a], yog'iy

**Dushmanlik**, adovat [a]

Dushvor [f-t], qiyin, mushkul [f-t], **murakkab** [a]

**Do'q**, po'pisa, tahdid [a], davara, dag'dag'a, siyosat [a]

**Do'st** [f-t], oshna [f-t], og'ayni, jo'ra [f-t], oshna-og'ayni, yor [f-t], yor-do'st [f-t], ahbob [a], habib [a]

-E-

**Ega**, xo'jayin [f-t], xo'ja [f-t], sohib [a]

**Ehtiyoj** [a], talab [a], muhtojlik, zarurat [a], zaruriyat [a], hojat [a], zorlik

**Ekmoq**, o'tqazmoq, tiqmoq

**Eplamoq**, uddalamoq

**Erka**, arzanda [f-t], tantiq

**Erta**, barvaqt [f-t+a], vaqtli

**Esdalik**, yodgor [f-t], xotira [a]

**Eslamoq**, xotirlamoq, yodlamoq, yod etmoq, yo'qlamoq

**Evaziga**, hisobiga, badaliga

**Ezma**, ezma-churuk, mijg'ov, lattachaynar, mag'zava

**Ezgulik**, yaxshilik, egilik

**Eshitmoq**, tinglamoq

-F-

**Fahm** [a], farosat [a], did [f-t], tamiz [f-t], uquv, zehn [a], idrok [a]

**Faqat** [a], yolg'iz, birgina, tanho [f-t], xolos [a]

Farosatli, **zehnli**, didli, zakovatli, zukko [a], zakiy [a], zol [f-t]

**Farq** [a], ayirma, tafovut [a]

**Farzand** [f-t], bola, zuryod (zirriyot) [a], tirnoq

**Faxrlanmoq**, faxr etmoq, g'ururlanmoq, mag'rurlanmoq

**Foyda** [a], naf [a], manfaat [a], sud [f-t], hayon

-G-

**Gangimoq**, dovdiramoq, esankiramoq, garangsimoq, gangramoq, kalovlanmoq, mengrovsimoq, talmovsiramoq, obdiramoq

**Gapdon** [f-t], so'zamol, notiq [a]

**Gapirmoq**, so'zlamoq, so'ylamoq

**Gavda**, jussa [a]

**Gavdali**, jussali, barvasta [f-t], norg'ul, qomatdor [a+f-t], barzangi [f-t]

**Gina qilmoq**, yozg'irmoq, o'pkalamoq

Gruppa [r<nem], **guruh** [f-t], to'da [f-t], to'p [f-t], turkum [a]

**Gul** [f-t], chechak

**Gulshan** [f-t], guliston [f-t], gulzor [f-t], gulbog' [f-t], bo'ston [f-t], chaman [f-t], chamanzor [f-t]

**Gumon** [f-t], dargumon [f-t], noma'lum [f-t+a], noaniq [f-t+a]

**Guvoh** [f-t], shohid [a]

**Go'r** [f-t], qabr [a], mozor [f-t], lahad [a]

-H-

**Ha**, shunday, balli [f-t]

**Hamdarkash** [f-t], dardakash [f-t], g'amxo'r [a+f-t]

**Hamma** [f-t], barcha, bari, butun, bor, jami [a], butkul, tamom [a], bor-yo'q

**Hamon** [f-t], hanuz [f-t]

**Hamroh** [f-t], yo'ldosh, esh

**Har qancha**, harchand [f-t], qancha, ming

**Harom** [a], makruh [a], iflos [a], murdor [f-t], palid [f-t]

- Harorat** [a], temperatura [r<lat], taft [f-t], hovur
- Harsillamoq**, hansiramoq, halloslamoq, entikmoq
- Hassa** [a], asso [a]
- Havo** [a], kun
- Haydamoq**, quvmoq, quvlarimoq
- Hayoli, oriyatli, andishali, **nomusli**, iboli
- Hayronlik**, hayrat [a], taajjub [a]
- Hazilkash** [a+f-t], hazilvon [a+f-t], tegishqoq
- Hazillashmoq**, hazil qilmoq, tegishmoq, o'ynashmoq
- Hech** [f-t], aslo [a], asti [a], sira, mutlaqo [a], zinhor [f-t], butunlay, hargiz [f-t], taqir, zarracha, zig'ircha, tirnoqcha
- Hid**, is, bo'y [f-t]
- Hidlamoq**, iskamoq
- Hisoblamoq**, bilmoq, qaramoq, ko'rmoq, sanamoq, tushunmoq, atamoq
- Hissa** [a], tegish, ulush, tan [f-t]
- Hiyla** [a], nayrang [f-t], makr [a], aldov, firib [f-t], dasisa [a]
- Homilador** [a+f-t], ikkiqat, bo'g'oz, yukli, og'iroyoq
- Hosildor** [a+f-t], serhosil [f-t+a], unumdor, serunum
- Hurmoq**, vovillamoq, akillamoq
- Hurmat** [a], izzat [a], ehtirom [a]
- Hurmatli**, izzatli, muhtaram [a]
- Hurmatlamoq**, hurmat qilmoq, izzat qilmoq, siylamoq
- Husn [a], **chiroy**, ko'rk, zeb [f-t]
- I-
- Iflos** [a], isqirt [a], irkit, isqliqi, bulg'ananch, ivirsiq, nopok [f-t]
- Iltimos** [a], iltijo [a], o'tinch, zor [f-t], tavallo [a]
- Ilg'or**, zarbdor [a+f-t], peshqadam [f-t+a], yetakchi, avangard [r<fr], udarnik [r], karvonboshi
- Imillamoq**, imirsilamoq, sudralmoq
- Imzo** [a], qo'l

**In**, uya, oshyon [f-t]

**Indamas**, pismiq, ming'aymas, damduz [f-t]

**Indamaslik**, churq etmaslik, miq etmaslik

**Inoq** [mo'g'], ahil [a], qadrdon [a+f-t], totuv, ittifoq [a], qalin, apoq-chapoq

**Inoqlashmoq**, ahillashmoq, totuvlashmoq, qadrdonlashmoq, ittifoqlashmoq, qalinlashmoq

**Inqiroz** [a], tanazzul [a]

**Isimoq**, qizimoq

**Istiqbol** [a], kelajak

**Istak**, xohish [f-t], orzu [f-t], havas [a], ishtiyooq [a], hafsala, mayl [a], ra'y [a], ko'ngil, armon [f-t], rag'bat [a], tilak

**Istamoq**, xohlamoq, tusamoq, orzulamoq, orzu qilmoq, tilamoq, ixtiyor qilmoq, sog'inmoq

**Ivimoq**, bo'kmoq

**Ixlosmand** [a+f-t], ishqiboz [a+f-t], shinavanda [f-t], havaskor [a+f-t], muxlis [a]

**Ixtiyor** [a], izm [a], mayl [a]

**Izlamoq**, qidirmoq, axtarmoq, istamoq

**Ish**, yumush

Ishkal [a], **chatoq**, xurjun [f-t], yomon, rasvo [f-t], pachava

**Ishlamoq**, mehnat qilmoq, xizmat qilmoq

**Ishchan**, harakatchan, serharakat [f-t+a], g'ayratli, serg'ayrat [f-t+a], tirishqoq, urinchoq

Ichkilikboz, **araqxo'r** [a+f-t], piyonista [r пьяница], mayxo'r [f-t]

**Ichmoq**, ko'tarmoq, tortmoq, otmoq, no'sh etmoq

-J-

**Jahl** [a], achchiq, g'azab [a], qahr [a], zarda [f-t]

**Jala**, sel [a]

**Janjal**, to'polon, g'alva, mojaro [a], g'avg'o [f-t], mashmasha, sho'rish

**Jarima** [a], shtraf [r<nem]

**Javramoq**, vaysamoq, qaqillamoq

**Jilmaymoq**, kulimsiramoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq, irshaymoq

**Jimlik**, jimjitlik, sukunat [a], sukulut [a]

**Jingalak**, fatila [a], qo'ng'iroq

**Jinni** [a], telba, devona [f-t]

**Jirkanmoq**, hazar qilmoq, yirganmoq

**Jirkanch**, qabih [a], razil [a], manfur [a], zalil [a], nafratli

**Joy**, o'rin

**Joylashmoq**, o'rnashmoq, o'rinalashmoq

**Juda**, g'oyat [a], g'oyatda, bag'oyat [f-t+a], nihoyatda, benihoya [f-t+a], ashaddiy [a], o'taketgan, toza, rosa [f-t], xo'p [f-t xo'b], biram, chunon [f-t], beqiyos [f-t+a], mislsiz, obdan, o'bdan, chandon [f-t], zap, ko'p, o'ta, uvvalo, bisyor [f-t], yomon, kamoli [a], kiroyi [a+f-t], o'lgu(n)day, o'larday, o'larcha, qattiq

**Juldur**, uvada

## -K-

**Kabi**, singari, yanglig', o'xshash, misol(i) [a], bamisoli [f-t+a], misli [a], degandek

**Kalta**, qisqa, ko'toh [f-t]

**Kam** [f-t], oz

**Kambag'al** [f-t], qashshoq, bechora [f-t], faqir [a], yo'qsil, gado [f-t], bechorahol [f-t+a], miskin [a]

**Kambag'allik**, kambag'alchilik, muhtojlik, yo'qchilik, faqirlik, qashshoqlik, bechorachilik, gadolik, miskinlik

**Kamchil**, tanqis [a], taxchil, kamob [f-t]

**Kamaymoq**, ozaymoq

Kanikul [r<lat], **ta'til** [a]

**Kar** [f-t], garang, karquloq

Karra [a], baravar [f-t], **marta** [a], hissa [a], bor [f-t], chandon [f-t]

**Kasal** [a], betob [f-t], notob [f-t], bemor [f-t], nosog', xasta [f-t]

**Kasalmand** [a+f-t], dardchil, dardmand [f-t]

**Kasal bo'lmoq**, kasallanmoq, betob bo'lmoq, betoblanmoq, og'rimoq, xasta bo'lmoq

**Kasb** [a], hunar [f-t], kasbkor [a+f-t], ish  
**Kasr** [a], kasofat [a], jat  
**Katta**, ulug', buyuk, zo'r, azim [a], azamat [a], ulkan, bahaybat [f-t+a], haybatli, yirik, gigant [r<grek]  
**Kayfiyat** [a], kayf [a], avzo [a]  
**Kayfli**, huzurli, nash'ali, safoli, gashtli  
**Kekkaygan**, gerdagan, kerilgan, dimog'dor [f-t], kalondimog' [f-t], kerik, manman, takabbur [a]  
**Keksa**, qari, pir [f-t]  
**Keksaymoq**, qarimoq, qartaymoq  
**Kelishgan**, xushbichim, xushqomat [f-t+a], bejirim, ketvorgan, lobar [f-t], tamtam  
**Kelishmoq**, bitishmoq, murosaga kelmoq  
**Kerak**, lozim [a], zarur [a], darkor [f-t]  
**Kerakli**, zarur [a], zaruriy  
**Kerilmoq**, kekkaymoq, gerdamoq  
**Kesatiq**, kinoya [a], istehzo [a], piching  
**Kesmoq**, qirqmoq, chopmoq  
**Ket**, jo'na, tur, yo'qol, rav [f-t]  
**Ketmoq**, jo'namoq, ravona bo'lmoq  
**Keyin**, so'ng, so'ngra, innaykeyin, ba'daz [a]  
**Kecha**, kechasi, tun, oqshom  
**Kifoya** [a], yetarli, yetadi, bo'ladi, bo'ldi, bas [f-t]  
**Kechikmoq**, hayallamoq, uzoqlamoq  
**Kechirim**, uzr [a], afv [a]  
**Kimsasiz**, bekimsa, yolg'iz, bekas [f-t], so'qqabosh, g'arib [a]  
**Kirish**, muqaddima [a]  
**Kirmoq**, joylashmoq, o'rnashmoq  
**Kiyim**, ust-bosh, kiyim-kechak, kiyim-bosh, libos [a], engil, yengil-bosh, egin  
**Kulgi**, xanda [f-t]  
**Kutmoq**, poylamoq

**Kuy**, tarona [f-t]

**Kuch**, quvvat [a], mador [a], majol [a], darmon [f-t]

**Kuchaymoq**, zo'raymoq

**Kuchli**, baquvvat [f-t+a], zabardast [f-t]

**Kuchsiz**, bequvvat [f-t+a], kamquvvat [f-t+a], zaif [a], nimjon [f-t], ojiz [a]

**Kuchsizlanmoq**, zaiflashmoq

**Ko'k**, zangor (zangori) [f-t], moviy [a], havorang [a+f-t]

**Ko'karmoq**, bo'zarmoq, gezarmoq

**Ko'klamoq**, ko'karmoq

**Ko'krak**, ko'ks, bag'ir, siyna [f-t], to'sh, umrov

Ko'nikmoq, o'rganmoq, **odatlanmoq**, odat qilmoq

**Ko'nmoq**, unamoq, rozi bo'lmoq, yurmoq

**Ko'p**, ancha, talay, sonsiz, sanoqsiz, behisob [f-t+a], mo'l, serob, beedad [f-t+a], bisyor [f-t]

**Ko'paymoq**, seroblashmoq

**Ko'pincha**, aksar [a]

**Ko'pchilik**, aksar [a], aksariyat [a]

**Ko'r**, basir [a], so'qir [mo'g'], ojiz [a]

**Ko'rinish**, tus, qiyofa [a], avzo [a], vajohat [a], siyoh, turq

-L-

**Lapashang**, lavand (lavang) [f-t], epashang, bo'shang, landavur, noshud [f-t], so'tak, bo'sh-bayov, latta

**Laqma**, go'l [f-t]

**Lavozim** [a], mansab [a], amal [a], o'rin

**Lekin** [f-t<a>], biroq, ammo [a], illo [a]

**Loyiq** [a], munosib [a], muvofiq [a], bop [f-t], mos [a], monand [f-t], mustahiq [a]

-M-

**Mahbus** [a], bandi [f-t], tutqun, ariston [r aspectant]

**Mahalliy** [a], yerlik

**Manglay** [mo'g'], peshana [f-t]

**Mansabdar** [a+f-t], amaldor [a+f-t], a'yon [a]

**Manzil** [a], adres [r<fr]

**Maosh** [a], oylik, moyana [f-t]

**Maqsad** [a], niyat [a], muddao [a], murod [a]

**Mard** [f-t], tanti, himmatli, er

**Marta** [a], karra [a], bor [f-t], gal, navbat [a], daf'a [a], qayta, topqir, qur, yo'l, qatla, qat, safar [a]

**Maslahat** [a], kengash, mashvarat [a]

**Maslahatchi**, maslahatgo'y [a+f-t], kengashchi

**Maslahatli**, kengashli

**Maslahatlashmoq**, maslahat qilmoq, kengashmoq, aqlashmoq, mashvarat qilmoq

**Masxara** [a], mazax [a]

**Masxaralamoq**, masxara qilmoq, mazaxlamoq, mazax qilmoq, mayna qilmoq, kalaka qilmoq

**Mazali**, lazzatli, laziz [a], xushta'm, shirin [f-t], totli, ta'mli, xushxo'r [f-t]

**Mag'rurlanmoq**, g'ururlanmoq, kibrlanmoq, havolanmoq

**Mashg'ul** [a], band [f-t], ovora [f-t], andarmon [f-t]

**Ma'lum bo'lmoq**, bilinmoq, aniqlanmoq, ayon bo'lmoq

**Ma'lum** [a], ayon [a], oshkor (oshkora) [f-t], aniq [a]

**Ma'no** [a], mazmun [a]

**Mehmon** [f-t], qo'noq

**Merosxo'r** [a+f-t], voris [a]

**Mozor** [f-t], qabriston [a+f-t], go'riston [f-t], mozoriston [f-t]

**Mubolag'a** [a], lof [f-t], mahovat [a]

**Muharrir** [a], redaktor [r<fr]

**Muhim** [a], ahamiyatli, asosiy [a]

**Muhtoj** [a], zor [f-t]

**Mujimoq**, g'ajimoq, kemirmoq

Mumsik [a], ziqla, **xasis** [a], qattiq

**Munosabat** [a], aloqa [a], ora, robita [a]

Musibat [a], **g’am** [a], kulfat [a], tashvish [a], savdo [a]

**Musobaqa** [a], bellashuv, kurash

**Musobaqalashmoq**, bellashmoq, kuch sinashmoq, musobaqa o’ynamoq

Mustahkam [a], mahkam [a], **puxta** [f-t], pishiq-puxta, sifatli, qattiq

**Muvofiq** [a], binoan [a], bo’yicha, ko’ra, asosan [a]

**Muzlamoq**, to’ngmoq, yaxlamoq

**Mo’ljallamoq**, mo’ljal qilmoq, ko’zlamoq, chog’lamoq, azmoyish qilmoq, chamalamoq, cho’tlamoq, taxmin qilmoq

**Mo’Ichilik**, mo’l-ko’ichilik, serobchilik, farovonlik, serobgarchilik, kengchilik, to’kinchilik, ma’murchilik

-N-

**Nafas** [a], dam [f-t], tin

**Nafis** [a], nozik [f-t], latif [a]

**Naqadar**, nechog’lik, qanchalik, bunchalar

**Narsa**, buyum, ashyo [a], predmet [r]

**Narx** [f-t], baho [f-t], qiymat [a]

**Narxlamoq**, baholamoq, narx qo’ymoq

**Nasihat** [a], o’git, pand [f-t], ma’viza [a]

**Natija** [a], oqibat [a], yakun [a]

Navbat [a], gal, sira, **marta** [a]

**Navbatdagi**, galdagi, endigi

**Nayrangboz** [f-t], lo’ttiboz [f-t]

**Nashr etmoq**, bosmoq, chop etmoq

Noaniq [f-t+a], dudmol, noma’lum [f-t+a], **gumon** [f-t], notayin [f-t+a], tayinsiz, mujmal [a], belgisiz, muhmal [a], mubham [a]

**Noiloj** [f-t+a], nochor [f-t], chor-nochor [f-t], ilojsiz

**Nola** [f-t], nolish [f-t], oh, fig’on [a], faryod [f-t], zor [f-t], dod [f-t], afg’on [a]

**Nolimoq**, shikoyatlanmoq, shikoyat qilmoq, zorlanmoq, hasrat qilmoq

Nolish [f-t], **nola** [f-t], shikoyat [a], hasrat [a]

**Noloyiq** [f-t+a], nomunosib [f-t+a]

Nom [f-t], ot, ism [a], **dovruq**

**Nomiga**, yo'liga, irimiga

**Nomusli**, hayoli, oriyatli, andishali, iboli

**Noqulay**, o'ng'aysiz, nobop [f-t]

Notavon [f-t], nochor [f-t], **bechora** [f-t], abgor [f-t afgor], aftoda [f-t]

Notinch, betinch, **bezovta**, besaranjom [f-t], alg'ov-dalg'ov, to's-to'polon

**Novcha**, naynov [f-t], daroz [f-t], uzun

**Noxush** [f-t], ko'ngilsiz, yoqimsiz

**Nuqson** [a], ayb [a], nuqs [a], qusur [a], kamchilik, illat [a]

**Nur** [a], shu'la [a], yog'du, ziyo [a]

-O-

**Odam** [a], odamzod [a+f-t], kishi, inson [a], kimsa, bashar [a], shaxs

**Odamgarchilik**, insongarchilik

**Odat** [a], rasm [a], taomil [a], udum [a], urf [a], an'ana [a]

**Odatlanmoq**, ko'nikmoq, odat qilmoq, o'rganmoq

**Odobli** (adabli), boadab [f-t+a], axloqli

**Ohang** [f-t], intonatsiya [r<lat]

**Oila** [a], xonadon [f-t], uy, ro'zg'or [f-t]

**Old**[ida], huzuri[da], yon[ida], qosh[ida]

**Oldinga**, ilgari, olg'a

**Olifta**, fason (poson) [r<fr], bashang, po'rim [r фопма], satang

**Olov** [f-t], o't, otash [f-t]

Or [a], **uyat**, nomus [a]

**Oriq**, ozg'in, qiltiriq, dirdov, ipiltiriq, ramaqijon [f-t], log'ar [f-t]

**Orqa**, keyin, ket, ort

**Ortiq**, oshiq, ziyod(a) [a]

**Ortmoq**, yuklamoq, bosmoq, joylamoq

**Osmon** [f-t], ko'k, samo [a], falak [a], gardun [f-t]

**Oson** [f-t], yengil, o'ng'ay

**Ost**, tag, tub

**Ota**, dada, ada

**Otlanmoq**, qo'zg' almoq, ko'tarilmoq, oyoqlanmoq

**Otmoq**, uloqtirmoq, irg'itmoq, itqitmoq

**Ovora** [f-t], sarson [f-t], sargardon [f-t]

**Ovoz** [f-t], tovush, un, sado [a], sas, nido [a], sazo

**Ovqat** [a], taom [a], oziq, tomoq, xo'rak [f-t], yemish, ne'mat [a]

**Ovunmoq**, yupanmoq

**Ovunchoq**, yupanch(iq), ermak

**Oxir** [a], so'ng, ket, oyoq, odoq (adoq), nihoya [a], pirovard [f-t], intiho [a]

**Oxirgi**, so'nggi, keyingi

Ozgina, biroz, **birpas**, oz-moz, picha, sal, xiyol [a], jindek (jinday, jindak), qittay, jichcha, andak [f-t], chizi [f-t]

**Ozmoq**, oriqlamoq, ozg'inlamoq

**Ozod** [f-t], erkin, hur [a], sarbast [f-t]

**Og'ir**, vazmin [f-t], zildek, zil, zil-zambil, zalvarli

**Oshiq** [a], xushtor [f-t]

**Ochko'z**, badnafs [f-t+a], ochofat, suq, suq(a)toy

-P-

**Parvarish** [f-t], tarbiya [a], qarov

**Parvarishlamoq**, parvarish qilmoq, tarbiyalamoq, tarbiya qilmoq, qaramoq, boqmoq

**Parvona** [f-t], girdikapalak

**Payqamoq**, sezmoq, fahmlamoq

**Peshana** [f-t], manglay [mo'g']

**Peshin** [f-t], tush

**Piyoda** [f-t], yayov

**Pul** [f-t], aqcha, mullajiring, yakan

**Puxta** [f-t], pishiq

-Q-

**Qadam** [a], odim

**Qalbaki** [a+f-t], soxta [f-t], yasama, sun'iy [a], yolg'ondakam, g'ayritabiyy [a], botil [a]

**Qalin**, zich, tig'iz

**Qaltis**, nozik [f-t]

**Qal'a** [a], qo'rg'on

**Qamal**, qurshov, muhosara [a]

**Qaqshamoq**, zirqiramoq

**Qaram**, tobe [a]

**Qaramoq**, boqmoq

**Qarama-qarshilik**, zidlik, nizo [a], kelishmovchilik, ixtilof [a], nifoq [a]

**Qarash**, boqish, nigoh [f-t], nazar [a]

**Qarindosh**, urug', avlod [a], tug'ishgan, jigar [f-t], jigarband [f-t], jigargo'sha [f-t], xesh [f-t]

**Qaror** [a], azm [a], jazm [a]

**Qasam** [a], ont, qasamyod [a+f-t]

**Qattiq**, zarang [f-t], metin [a], tosh

**Qaynamoq**, jo'shmoq, yonmoq

**Qaynoq**, jo'shqin, qizg'in

**Qaz(i)moq**, kovlamoq

**Qachongacha**, tokay(gacha) [f-t]

**Qilmish**, kirdikor [f-t]

**Qilmoq**, etmoq, aylamoq

**Qirg'oq**, sohil [a], yoqa, lab, bo'y, chet

**Qistamoq**, zo'rلamoq, majburlamoq, majbur qilmoq

**Qiyin**, mushkul [a], mahol [f-t<a], og'ir, mashaqqatli, sermashaqqat [f-t+a], amri mahol [a], dushvor [f-t]

**Qiyinlashmoq**, og'irlashmoq, mushkullashmoq

**Qiynamoq**, azoblamoq, jabrlamoq

**Qiyg'os**, shig'a, tekis

**Qiyshiq**, qing'ir, egri

**Qiyinchilik**, mashaqqat [a], og'irchilik, qattiqchilik, riyozat [a], zahmat [a]

**Qizil**, qirmizi [f-t], ol

**Qiziq**, g'alati [a+f-t], ajoyib [a], alomat [a], antiqa [a<lat], ajab [a], ajib [a], allambalo

**Qiziqmoq I**, havaslanmoq, havas qilmoq

**Qiziqmoq II**, uchmoq

**Qizg'in**, avjida

**Qobiliyat [a]**, layoqat [a], iste'dod [a], talant [r<grek], salohiyat [a], uquv

**Qobiliyatli**, qobil [a], layoqatli, iste'dodli, talantli, salohiyatli, uquvli

**Qoida** [a], aqoid [a]

**Qomat [a]**, qad(d) [a], qad-qomat (qaddi-qomat) [a], bast [f-t], bo'y-bast (bo'yibast), duxt, kelbat [f-t], soxt [f-t], sumbat, soxt-sumbat, andom [f-t], bichim

**Qonmoq**, qoniqmoq, to'ymoq, miriqmoq

**Qorong'ilik**, zulmat [a], zimiston [f-t], zimziyo [f-t sim-siyoh]

**Qur I , marta** [a], daf'a [a], bor

**Qur II**, davra [f-t<a], maydon [f-t]

**Qurb** [a], hol [a], chog', kuch, qudrat [a], hol-qudrat [a], quvvat [a], chama

**Qurshamoq**, o'ramoq

**Quruq**, qoq

**Qutulmoq**, bo'shamoq, ozod bo'lmoq, xalos bo'lmoq, xoli bo'lmoq

**Quvnoq**, xushchaqchaq

**Quyosh**, kun, oftob [f-t]

Quchmoq, achomlamoq, **quchoqlamoq**

**Quchoq**, qo'yin, bag'ir, og'ush [f-t]

**Quchoqlamoq**, quchmoq, achomlamoq

**Qo'nmoq**, o'tirmoq, tushmoq, inmoq

**Qo'rqinch**, qo'rquv, vahim(a) [a], dahshat [a], vahshat [a]

**Qo'rqinchli**, vahimali, dahshatli, mudhish [a]

**Qo'rmmoq**, hayiqmoq, cho'chimoq, xavflanmoq

**Qo'rqoq**, yuraksiz

**Qo'rs**, qo'pol, to'ng, dag'al, to'rs, tund [f-t], ters

**Qo'zg'aldoq**, jilmoq, siljimoq, qimirlamoq

**Qo'shilmoq**, birlashmoq

-R-

**Rahmsiz**, berahm [f-t+a], shafqatsiz, qahrli, zolim [a]

**Rivoj** [a], taraqqiy [a], taraqqiyot [a], ravnaq [f-t]

**Rivojlanmoq**, taraqqiy etmoq, o'smoq, yuksalmoq

**Rohat** [a], huzur [a], maza [f-t<a], lazzat [a], safo [a], kayf [a]

**Rohatlanmoq**, rohat qilmoq, huzurlanmoq, huzur qilmoq, maza qilmoq, lazzatlanmoq, lazzat qilmoq

**Rost** [f-t], to'g'ri, chin, haq [a], haqqoniy [a], ochiq

**Rostdan**, chindan, haqiqatan, darhaqiqat [a]

**Rostgo'y** [f-t], haqgo'y [a+f-t], haqiqatgo'y [a+f-t], rostchi

**Ruxsat** [a], ijozat [a], rozilik, javob [a], izn [a]

-S-

**Sabab** [a], vaj [a], bahona [f-t], bois [a]

**Sababli**, sababdan, tufayli(dan), natijasida, oqibatida, orqasida

**Sababchi**, sababkor [a+f-t], aybdor [a+f-t]

**Sabil** (savil) [a], ordona, zormanda [f-t], baytalmon [a], egasiz

**Sadaqa** [a], ehson [a], xayr [a], hadya [a], nazr [a]

**Saf** [a], qator [a]

**Sakramoq**, hatlamoq, haklamoq

**Salomlashmoq**, so'rashmoq, ko'rishmoq, omonlashmoq, salom-alik qilishmoq

**Sanoqli**, hisobli, o'lchovli

**Saralamoq**, sarxillamoq, xillamoq, saylamoq, tanlamoq, termoq, saraga ajratmoq

**Saranjom** [f-t], sarishta [f-t], orasta [f-t], tartibli, batartib [f-t+a]

**Sarflamoq**, sarf qilmoq, xarajatlamoq, xarajat qilmoq, xarjlamoq, xarj qilmoq, chiqim qilmoq

**Sassiq**, badbo'y [f-t], qo'lansa

**Savol** [a], so'roq

**Saxiy** [a], himmatli, saxovatli, hotam [a], tanti  
**Saxiylik**, saxovat [a]  
**Sekin**, asta, ohista [f-t], sust [f-t]  
**Sekinla(sh)moq**, susaymoq, sustlashmoq, pasaymoq, qaytmoq  
**Sevgi**, muhabbat [a], ishq [a]  
**Sevgili**, mahbuba [a], yor [f-t], nigor [f-t], dildor [f-t]  
**Sevinmoq**, suyunmoq, quvonmoq, quvnamoq, shodlanmoq  
**Sevmoq**, ko'ngil qo'ymoq, suymoq, muhabbat bog'lamoq, yoqtirmoq, yaxshi ko'rmoq  
**Sezgi**, his [a], tuyg'u  
**Sezgir**, ziyrak [a], tuyg'un, hushyor [f-t], sergak, tiyrak  
**Sezmoq**, tuymoq, his etmoq  
**Sirt**, tash (tish)  
**Sirg'anmoq**, sirpanmoq, tirg'anmoq  
**Sirg'anchiq**, sirpanchiq, tirg'anchiq, toyg'oq, toyg'anoq  
**Sodda** [f-t], oddiy [a], jo'n, ibridooy [a]  
Sodiq [a], sadoqatli, **vafoli**, vafodor [a+f-t], fidokor [a+f-t]  
**Solishtirmoq**, taqqoslamoq, qiyoslamoq, qiyos qilmoq, chog'ishtirmoq  
**Son**, miqdor [a], hisob [a], sanoq, adad [a]  
Sonsiz, **ko'p**, sanoqsiz, son-sanoqsiz, besanoq, behisob [f-t+a], hisobsiz, beedad [f-t+a], adadsiz  
**Sop**, dasta [f-t], band [f-t]  
**Soqov**, tilsiz, gung, gunganlak  
**Soqchi**, qoravul, posbon [f-t], qo'riqchi  
**Sotmoq**, pullamoq, pul qilmoq  
**Sotqin**, xoin [a], xiyonatkor [a+f-t], g'addor [a], murtad [a]  
**Sovg'a**, hadya [a], tortiq, tuhfa [a], armug'on [f-t], in'om [a]  
**Soya** [f-t], ko'lanka, ko'lka, ko'laga  
**Soz** [f-t], cholg'u  
**Sozanda** [f-t], cholg'uchi, mashshoq [a], muzikachi, muzikant [r музикант]

**Sog'aymoq**, tuzalmoq

**Sog'liq**, salomatlik, sihat [a], tob [f-t]

**Subut** [a], burd [f-t], tayin [a]

**Suhbatlashmoq**, suhbat qilmoq, hasratlashmoq, otamlashmoq, hangamalashmoq, gurunglashmoq, gurung qilmoq

**Surat** [a], rasm [a]

**Sug'urmoq**, chiqarmoq

-T-

**Tabrik** [a], qutlov, muborakbod [a+f-t]

**Tabriklamoq**, tabrik qilmoq, qutlamoq, muborakbod qilmoq

**Takrorlamoq**, qaytarmoq

**Tamomlamoq**, tamom qilmoq, tugatmoq, sop qilmoq, soplamoq, bitirmoq, ado qilmoq, yo'qotmoq, yo'q qilmoq, quritmoq

**Taqdir** [a], qismat [a], yozmish, peshana [f-t], nasib(a) [a], ko'rgilik

**Taqsimlamoq**, bo'lmoq

**Tarjimon** [a], tilmoch, mutarjim [a]

**Tarjima qilmoq**, ag'darmoq

**Tartibsiz**, ag'dar-to'ntar, alg'ov-dalg'ov, ostin-ustun

**Tarzda**, holda, xilda, qabilda, yo'sinda, ravishda, suratda, taxlitda, tariqa [a]

**Tasalli** [a], taskin [a], yupanch

**Taxmin** [a], tusmol, chama, faraz [a]

**Tayyor** [a], muhayyo [a], shay, taxt, hozir [a]

**Tayyorgarlik**, tayyorlik, hozirlilik, taraddud [a], tadorik [a]

**Tayyorlamoq**, hozirlamoq, shaylamoq

**Tayyorlanmoq**, hozirlanmoq, shaylanmoq, otlanmoq

**Tashlamoq**, qo'yemoq, yig'ishtirmoq

**Tashna** [f-t], chanqoq, suvsoq

Tashvish [a], **g'am** [a], savdo [a], taraddud [a], qayg'u, sho'r [f-t], sho'rish [f-t]

**Tashvishlanmoq**, tashvish qilmoq, qayg'urmoq, qayg'ulanmoq, g'am qilmoq

**Ta'm** [a], maza [f-t<a], tot

**Ta’na** [a], yozg’iriq, malomat [a], mazammat [a]

**Tebranmoq**, lapanglamoq, irralmoq

**Tekinxo’r**, tekintomoq, baloxo’r [a+f-t], haromxo’r [a+f-t], haromtomoq, parazit [r<grek]

Tema [r<grek], **mavzu** [a]

**Tentak**, telba, devona [f-t], savdoyi, jinnisang’i, esvos

**Tergamoq**, kutmoq

**Termilmoq**, tikilmoq, to’nmoq

**Tetik**, bardam [f-t]

**Tez I**, ildam, jadal [a], shitob [f-t], shaxt, zud [f-t]

**Tez II**, yaqin

**Tezla(sh)moq**, jadalla(sh)moq, ildamlashmoq

**Teng**, baravar (barobar) [f-t]

**Tengdosh**, tengqur, hamqur, teng

**Tilkalamoq**, tilka-tilka qilmoq, tilka-pora qilmoq, burdalamoq, burda-burda qilmoq, poralamoq, pora-pora qilmoq

**Tilanchi**, sadaqachi, gado(y) [f-t], devona [f-t]

**Tinchimoq**, jimimoq, jim bo’lmoq

**Tiqmoq**, suqmoq

**Tirik**, hayot [a], barhayot [f-t+a]

**Titkilamoq**, titmoq, kavlamoq, kavlashtirmoq

**Titroq**, qaltiroq

**Titramoq**, qaltirlamoq, qalt-qalt qilmoq, dildiramoq, dir-dir qilmoq

**Tomon**, taraf [a], yon, yoq

**Tomchi**, chakka [f-t], qatra [a]

**Topshiriq**, vazifa [a]

**Tortinmoq**, qimtinmoq, iymanmoq

**Tortmoq**, jalb qilmoq

Toza, **beg’ubor** [f-t+a], ozoda [f-t], pok [f-t], pokiza [f-t], sof [a], musaffo [a], g’uborsiz

**Tuhmat [a]**, bo'hton [a]

**Tur**, xil [a], nav [a], toifa [a]

**Turli**, har xil, har turli, xilma-xil, turli-tuman, anvo(yi) [a]

**Turmush**, hayot [a], tirikchilik

**Tusmollamoq**, tusmol qilmoq, chamalamoq, chama qilmoq, taxminlamoq, taxmin qilmoq

**Tutash**, payvasta [f-t]

**Tutmoq**, ushlarimoq

**Tutun**, dud [f-t]

**Tuzmoq**, tashkil etmoq, barpo etmoq, ochmoq

**Tug'ilmoq**, paydo bo'lmoq

**Tushkunlik**, tanazzul [a]

**Tushunmoq**, anglamoq, uqmoq, fahmlamoq, bilmoq

**To'planmoq**, to'dalanmoq, uyulmoq, devalanmoq

**To'satdan**, to'sindan, qo'qqisdan, bexosdan, birdan, birdaniga, dabdurustdan, nogahon [f-t], kutilmaganda, banogoh [f-t], ittifoqo [a], daf'atan [a], ilkisdan, tuyqusdan, tuyuqsizdan, favqulodda [a], lop etib

**To'siq**, g'ov, to'sqinlik, qarshilik, to'g'anoq

**To'xtovsiz**, tinimsiz, betinim, muttasil [a], uzluksiz, bosim, surunkasiga, paydar-pay, ketma-ket

**To'g'risi**, rosti, sirasi, ochig'i, nafsilamr [a]

-U-

**Umr** [a], hayot [a]

**Umumiyy** [a], mushtarak [a]

**Unumli**, samarali, barakali

Urinmoq, **harakat qilmoq**, intilmoq, tirishmoq, unnamoq

**Urmoq**, kaltaklamoq, do'pposlarimoq, savamoq, solmoq, tushirmoq, so'qmoq

**Urishmoq**, olishmoq, yoqalashmoq, solishmoq, mushtlashmoq, so'qishmoq, tashashmoq

**Urush**, jang [f-t], muhoraba [a], harb [a]

**Usta** [f-t], mohir [a], mahoratli, omilkor [a+f-t], mirishkor [a+f-t], farang [f-t<a]

**Uyalmoq** I, iymanmoq, andisha qilmoq, nomus qilmoq, orlanmoq, or qilmoq

**Uyalmoq** II, izza bo'lmoq

**Uyat**, nomus [a], sharm [f-t], hayo [a], or [a], oriyat [a], andisha [f-t], ibo [a], isnod [a]

**Uyatsiz**, benomus [f-t+a], nomussiz, behayo [f-t+a], hayosiz, betsiz, yuzsiz, orsiz, andishasiz, sharmanda [f-t], sharmsiz, besharm [f-t], beibo [f-t+a], ibosiz, betavfiq [f-t+a]

**Uyg'oq**, uyqusiz, bedor [f-t]

**Uzoq**, olis, yiroq, iroq

**Uchmoq**, parvoz qilmoq

Uchramoq, **yo'liqmoq**, duch kelmoq

**Uchuvchi**, aviator [r]

-V-

**Vafo** [a], sadoqat [a], sodiqlik

**Vafoli**, vafodor [a+f-t], sodiq [a], sadoqatli

**Vaqt** [a], payt, zamon [a], fursat [a], mahal [a], chog', kez, kezak, mavrid [a], palla [f-t], muddat [a], dam [f-t], on [a], lahza [a]

**Vatan** [a], mamlakat [a], yurt, diyor [f-t], el, mulk [a]

**Vazifa** [a], burch

**Vaziyat** [a], ahvol [a], holat [a], sharoit [a], manzara [a]

**Va'da** [a], ahd [a], ahd-paymon [a+f-t]

**Va'dalashmoq**, ahdashmoq, ahd-paymon qilishmoq, kelishmoq, bitishmoq

**Vijdon** [a], nomus [a]

**Vijdonli**, nomusli, to'g'ri, halol [a], sofdil [a+f-t]

**Vijdonsiz**, nomussiz, benomus [f-t+a], noinsof [f-t+a], insofsiz, muttaham [a]

**Voqea** [a], hodisa [a], gap [f-t], sinoat [a]

-X-

**Xabar** [a], darak [a]

**Xabardor** [a+f-t], ogoh [f-t], boxabar [f-t+a], voqif [a]

**Xabarlamoq**, daraklamoq

**Xafalashmoq**, achchiqlanmoq

**Xalq** [a], xaloyiq [a], el, ulus [mo'g'], mardum [f-t]

**Xasis** [a], baxil [a], pishiq, qurumsoq, ziqlana, nokasta [f-t], nokasta [f-t], qizg'anchiq, qoqvosh [qoq bosh], qoq, o'limtik, o'larmon, haris [a], qattiq, do'qol

**Xat** [a], maktub [a], noma [f-t]

**Xavf** [a], xatar [a], tahlika [a]

**Xavfli**, xavotirli, xatarli, qo'rqinchli, tahlikali

**Xayriyat** [a], go'rga

**Xayrlashmoq**, xushlashmoq, vidolashmoq, xayr-ma'zur qilmoq, xayr-xo'sh qilmoq

**Xilvat** [a], ovloq, pana [f-t]

**Xira** [f-t], xiraxandon [f-t], shilqim, yopishqoq, yelim [f-t], sulloh [a]

**Xizmatkor** [a+f-t], xizmatchi, malay

**Xomush** [f-t], ma'yus [a]

**Xomushlanmoq**, ma'yuslanmoq

Xonasi, o'rni, vaqtin, **payti**, fursati, kezi

**Xudbin** [f-t], egoist [r]

**Xuddi** [f-t], aynan [a], ayni [a], rosa [f-t], naq [a], qoq, baayni [f-t+a]

**Xulq** [a], axloq [a], adab (odob) [a]

**Xunob** [f-t], diqqat [a], tajang [a]

**Xunob bo'lmoq**, tajang bo'lmoq, bo'g'ilmoq, diqqat bo'lmoq

**Xunuk** [f-t], badbashara [f-t+a], badburush [f-t], badqovoq, tasqara [a], bedavo [f-t+a], ta'viya [a], beo'xshov, beso'naqay, sovuq, badsurat [f-t+a], nadomat [a]

**Xursand** [f-t], xushvaqt [f-t+a], shod [f-t], xurram [f-t], xushnud [f-t], masrur [a], sarafroz [f-t]

**Xursandlik**, sevinch, quvonch, shodlik, surur [a], farah [a], behbudlik

**Xushbo'y** [f-t], hidli, muattar [a]

**Xushomadgo'y** [f-t], laganbardor, labbaygo'y [a+f-t], tilyog'lama, yaldoq

**Xushomadgo'ylik**, xushomad [f-t], laganbardorlik, labbayguylik, yaldoqlik

Xushro'y [f-t], **chiroyli**, go'zal, zebo [f-t]

**Xushxabar** [f-t+a], mujda [f-t]

-Y-

**Yakunlamoq**, yakun qilmoq, natijalamoq, sarhisob etmoq

**Yalinmoq**, yolvormoq

**Yana**, tag'in, qayta, boshqa, bo'lak, endi, boz [f-t]

**Yara**, jarohat [a]

**Yarali**, yarador, jarohatli, majruh [a]

**Yaralamoq**, jarohatlamoq

**Yaramas**, iflos [a], razil [a], nobop [f-t], badkirdor [f-t], ablah [a], nomard [f-t], badkor [f-t], olchoq, pastkash

**Yaralmoq**, paydo bo'lmoq, bino bo'lmoq, bunyod bo'lmoq, tug'ilmoq

**Yarashmoq**, kelishmoq, ketmoq

**Yaroqli**, layoqatli, qobiliyatli

**Yashamoq**, turmoq, istiqomat qilmoq

**Yashirin(cha)**, bekitiqcha (bekitiqchi), maxfiy [a], pinhon [f-t], xufiya [a], zimdan, o'g'rinch, nihon [f-t]

**Yashirmoq**, bekitmoq (berkitmoq), sir tutmoq

**Yaxshi**, durust [f-t], tuzuk, binoyi [f-t<a], binoyidek, joyida, soz [f-t], nozanday (noppa-nozanday), (noppa-nozin), bop [f-t], bopta [f-t], ajabtovur [a+f-t], avlo [a], poshshaxon, qoyil [a], qoyilmaqom [a]

**Yanglish**, xato [a], noto'g'ri, chatoq, adash, g'alat [a]

**Yanglishmoq**, xato qilmoq, adashmoq

**Yelka**, kift [a], o'miz

**Yemoq**, tanovul qilmoq, oshamoq, iste'mol qilmoq, totmoq, olmoq, tushirmoq, urmoq, ham qilmoq

**Yer**, arz [a]

**Yetim** [f-t<a], sag'ir [a]

**Yetishmoq**, yetmoq, erishmoq, tuyassar bo'lmoq, muvaffaq bo'lmoq, vosil bo'lmoq, noil bo'lmoq

**Yetmoq**, kifoya qilmoq, bo'lmoq  
**Yetuk**, barkamol [f-t+a], raso [f-t]  
**Yechmoq**, hal qilmoq  
**Yengmoq**, g'alaba qilmoq, taslim qilmoq, mag'lub qilmoq  
**Yiqilmoq**, qulamoq, ag'namoq, (ag'anamoq), ag'darilmoq  
**Yig'in**, ma'raka [a], yig'ilish, majlis [a]  
**Yig'moq**, to'plamoq, to'dalamoq, jamlamoq, jamg'armoq, yig'namoq  
**Yodgorlik**, obida [a]  
**Yolg'iz**, yakka [f-t], tanho [f-t]  
**Yolg'onchi**, aldamchi, aldoqchi, kazzob [a]  
**Yomon**, yaramas, rasvo [f-t], nobop [f-t], bo'lmag'ur  
**Yomonlashmoq**, og'irlashmoq, mushkullashmoq  
**Yonmoq**, kuymoq, o'rtanmoq  
**Yopmoq**, bekitmoq (berkitmoq)  
**Yoqtirmoq**, xohlamоq, xushlamоq  
**Yordam**, ko'mak [f-t], madad [a]  
**Yordamchi**, ko'makdosh [f-t]  
**Yordamlashmoq**, yordam qilmoq, ko'maklashmoq, qarashmoq, boqishmoq  
**Yorishmoq**, ochilmoq  
**Yorug'**, nurli, charog'on [f-t], yorqin, munavvar [a], porloq, ravshan [f-t], nurafshon [a+f-t]  
**Yotsiramoq**, yotsinmoq, begonasiramoq  
**Yozmoq**, bitmoq  
**Yozuvch**, adib [a]  
**Yubormoq**, jo'natmoq, yo'llamoq  
**Yugurmoq**, chopmoq  
**Yumshamoq**, bo'shashmoq, muloyimlashmoq  
**Yumshoq**, bo'sh, muloyim [a]  
**Yuqori**, yuksak, oliv [a], a'lo [a]  
**Yurak**, qalb [a], ko'ngil, dil [f-t]

**Yuvosh**, mo'min [a], qobil [a], royish [f-t]

**Yuz**, bet, aft, bashara [a], turq, chehra [f-t], jamol [a], diydor [f-t], oraz [a], uzor [a], ruxsor [f-t]

**Yo'latmoq**, keltirmoq, yaqinlashtirmoq

**Yo'liqmoq**, uchramoq, duchor bo'lmoq, giriftor bo'lmoq, mubtalo bo'lmoq

**Yo'lovchi**, yo'lchi, o'tkinchi

-Z-

**Zahar** [a], og'u

**Zarar** [a], ziyon [f-t], futur [a], talafot [a]

**Zavq** [a], maroq [a], shavq [a]

**Zavqlanmoq**, maroqlanmoq, shavqlanmoq

**Zid** [a], xilof [a]

**Ziq** [a], tig'iz

**Ziyoli**, intelligent [r]

**Zing'llamoq**, zipillamoq, g'irillamoq

**Zora** [f-t], shoyad [f-t], koshki [f-t], qani (qani endi, qani edi)

**Zoriqmoq**, zor bo'lmoq, muhtoj bo'lmoq

**Zotdor** [a+f-t], zotli, nasldor [a+f-t]

**Zulm** [a], istibdod [a]

-O'-

**O'jar**, qaysar [a<lat], qiyiq, tixir, battol [a], aks [a], sarkash [f-t], kajbahs [f-t+a], ters, goj

**O'lik**, murda [f-t], jasad [a]

**O'lim**, vafot [a], qazo [a]

**O'lmoq**, vafot etmoq, qazo qilmoq, nobud bo'lmoq, qurban bo'lmoq, halok bo'lmoq, qulamoq, uzilmoq

**O'qituvchi**, pedagog [r], muallim [a], domla [a domulla], afandi [turk-usm<grek],

**O'pich**, bo'sa [f-t], muchchi

**O'rалмоқ**, burkanmoq

**O'ramoq**, chirmamoq

**O'ribbosar**, muovin [a]  
**O'rinli**, jo'yali, ma'qul [a], joiz [a]  
**O'rnak**, namuna [f-t], ibrat [a], ulgi  
O'rtoq, **do'st** [f-t], habib [a], og'ayni, oshna [f-t], jo'ra [f-t], ulfat [a], birodar [f-t], hamdam [f-t], tomir,  
**O'smoq**, ulg'aymoq, katta bo'lmoq  
**O'tkir**, keskir  
**O'tmish**, kechmish, moziy [a]  
**O'xhash**, monand [f-t]  
**O'yin**, raqs [a]  
**O'ynamoq**, raqs etmoq  
**O'zboshimcha**, bebosh  
O'zga, boshqa, **begona** [f-t], ag'yor [a]  
**O'ch**, qasos [a], qasd [a], intiqom [a], alam [a]  
**O'chmoq**, so'nmoq

-G'-

**G'alaba** [a], zafar [a], tantana [a], muzaffariyat [a]  
**G'am** [a], tashvish [a], qayg'u, kulfat [a], musibat [a], alam [a], anduh [f-t], mung, dog' [f-t]  
**G'amgin** [f-t<a>], qayg'uli, hazin [a], hasratli, mungli, mahzun [a], g'amnok [a+f-t]  
**G'araz** [a], kek, kin [f-t], gidir  
**G'irrom**, tirriq  
**G'iybat** [a], fisq-fasod [a], fisq-fujur [a]  
**G'olib** [a], muzaffar [a]  
**G'ulg'ula** [f-t], g'uluv [a], qutqi, g'ashlik  
**G'urur** [a], kibr [a], havo [a], kibr-havo [a], dimog' [f-t]

-SH-

**Shallaqi**, manjalaqi  
**Shamol** [a], shabada, yel, sabo [a]  
**Shapaloq**, shapati, tarsaki [f-t]

**Shikoyat** [a], arz [a], dod [f-t], arz-dod [a+f-t]

**Shol** [a], falaj [a]

**Shovqin**, shovqin-suron, suron, shov-shuv, g'ovur, g'avg'o [f-t], g'ala-g'ovir, qiy-chuv, dod-voy, ayyu-hannos [a]

**Shoshilinch**, qistalang, oshig'ich, tig'iz, tang [f-t], ziq [a]

**Shoshmoq**, shoshilmoq, oshiqmoq

**Shubha** [a], gumon [f-t], ishonchsizlik, ishtiboh [a]

**Shubhalanmoq**, shubha qilmoq, gumonsiramoq, gumon qilmoq

-CH-

**Chakki**, noo'rin, o'rinsiz, noma'qul [f-t+a], nojo'ya [f-t]

**Chalg'itmoq**, alaxsitmoq, aylantirmoq

**Chamasi**, chamamda, nazarimda, aftidan, chog'i, chog'imda, bilishimcha, mazmuni, shekilli [a], nazdimda, obbaholam

**Chanqov**, tashnalik

**Chanqamoq**, suvsamoq, cho'llamoq, tashna bo'lmoq

**Chap** [f-t], so'l

**Chapak** [f-t], qarsak

**Chaqirmoq**, chorlamoq

**Chaqqon**, epchil, chechan, abjir, chapdast [f-t]

**Charchoq** I, horg'inlik, hordiq

**Charchoq** II, horg'in

**Charchamoq**, horimoq, tolmoq, toliqmoq

**Chatoq**, ishkal [a], xurjun [f-t], yomon, rasvo [f-t], pachava

**Chaynamoq**, kavshamoq

**Chayqovchi**, olibsotar

**Chang**, gard [f-t], g'ubor [a], to'zon

**Chegara**, chek, had [a], poyon [f-t]

**Cheksiz**, behad [f-t+a], benihoya [f-t+a], bilonihoya [a]

**Chidam**, bardosh [f-t], toqat [a], tob [f-t], to'zim, tahammul [a], matonat [a]

**Chidamli**, bardoshli, toqatli, to'zimli, matonatl

**Chidamoq**, ko'tarmoq, bardosh qilmoq, toqat qilmoq

**Chiqim**, sarf [a], xarajat [a], xarj [a]

**Chiroyli**, go'zal, husndor [a+f-t], husnli, xushro'y [f-t], ko'hlik, ko'rakam, barno [f-t], suluv, zebo [f-t], latofatl, sohibjamol [a]

**Chiroylilashmoq**, go'zallahmoq, ko'rkamlashmoq

**Chol**, keksa, qariya, qari, mo'ysafid [f-t], oqsoqol, boboy

**Chopqir**, chopag'on, yuguruk, uchqur

**Chora** [f-t], iloj [a], tadbir [a], imkon [a], yo'l, ep (ev), amal [a]

**Chunki** [f-t], negaki, sabab(ki), zero(ki)

**Chuqur**, teran

**Cho'kmoq**, botmoq, g'arq bo'lmoq

**Cho'loq**, oqsoq, lang [f-t]

**Cho'loqlanmoq**, oqsamoq

**Cho'ntak**, kissa [f-t], karmon [r карман], hamyon

## MUNDARIJA

Alifbo.....
So'zboshi.....
Kirish.....
A.....
B.....
D.....
E.....
F.....
G.....
H.....
I.....
J.....
K.....
L.....
M.....
N.....
O.....
P.....
Q.....
R.....
S.....
T.....
U.....
V.....
X.....
Y.....
Z.....
O‘.....
G‘.....
SH.....
CH.....
NG.....

## **QAYDLAR UCHUN**

<p><b>Xosiyat Suvonova</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING SHAKLDOSH SOZLAR O'QUV LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>	<p><b>Nilufar Yo'ldosheva Nargiza Musulmonova</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING SO'ZLAR BIRIKUVCHANLIGI O'QUV LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>
<p><b>To'ra Nafasov Vazira Nafasova Dilbar Niyoziyova</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING TALAFFUZDOSH SO'ZLAR LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>	<p><b>Xurshida Norxo'jayeva</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING ESKIRGAN SO'ZLAR O'QUV IZOHLI LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>
<p><b>Baxtiyor Mengliyev O'rol Xoliyorov</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING SO'Z YASALISHI O'QUV LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>	<p><b>Yorqinoy Hamrayva</b></p> <p><b>O'ZBEK TILINING O'ZLASHMA SO'ZLAR O'QUV IZOHLI LUG'ATI</b></p> <p>Maktab o'quvchilari uchun</p>



